




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

SHONAZAR SHOABDURAHMONOVNING FOLKLORSHUNOSLIK FAOLIYATI

THE FOLKLORE STUDIES ACTIVITIES OF SHONAZAR SHOABDURAHMONOV

Shaxlo MINGNOROVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/KDSX1598

Annotation. *This article discusses Shonazar Shoabdurahmonov's significant contributions to the study, collection, and publication of oral folk literature, as well as his efforts to uncover and promote examples of Uzbek folklore. It highlights the work he carried out in collaboration with the founder of Uzbek folklore studies, Hodi Zarif, and the distinguished folklorist To'ra Mirzayev. The article also emphasizes that he was a researcher of the creative heritage of Ergash Jumanbulbul o'g'li.*

Key words: *Shonazar Shoabdurahmonov, folklore studies, Ergash Jumanbulbul o'g'li, research, publication.*

Taniqli olim, akademik Shonazar Shoabdurahmonov ilmiy faoliyati davomida tilshunoslikning dialektologiya, punktuatsiya, orfografiya, imlo, badiiy asar tili kabi yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirdi. Shu bilan birgalikda uning ilmiy faoliyatida o'zbek folklori bo'yicha qilingan ishlar ham o'zining alohida o'rniga ega. Sh. Shoabdurahmonov xalq og'zaki ijodini o'rganish va nashr etish, folklorshunoslar tayyorlash sohasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Shonazar Shoabdurahmonov butun faoliyati davomida folklorshunoslar bilan birga bo'ldi. Ya'ni o'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarif olimning dastlabki ustozlaridan biri, taniqli folklorshunos To'ra Mirzayev esa Shonazar Shoabdurahmonovning do'sti edi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasiga ilk kelgan kezlarida Hodi Zarifning ilmiy ko'magidan bahramand bo'ldi. Uning o'zi ham "Men hali fanning bo'yim yetmagan balandliklarini uning kiftida turib ko'rgan ko'plab shogirdlaridan biriman... ..to'g'risini aytsam, unga juda-juda havasim keladi, munosib shogirdi bo'lib qolsam, deyman" deb aytadi [Шоабдурахмонов, 1967, 17 март]. Bu shogirdlik olimning o'zbek folklori bo'yicha ham tom ma'noda katta bilim egasi bo'lishida muhim rol o'ynadi. Sh. Shoabdurahmonov "Ta'zim" [Шоабдурахмонов, 1967, 17 март], "Ulkan olim" [Шоабдурахмонов, Мирзаев, 1985] kabi maqolalarida Hodi Zarif faoliyatini aks ettiradi.

Sh. Shoabdurahmonov To'ra Mirzayev bilan ilmiy hamkorlikda bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Xususan, ularning hammualliflikdagi "Professor Mustaqil Mirzayev", "Mashhur dostonchi", "Meros zamon xizmatida", "Ulkan olim" nomli maqolalari yuzaga keldi. Bir-birlarining yubiley sanalari munosabati bilan maqolalar e'lon qilishdi [Мирзаев, Жўраев, 2003] [Шоабдурахмонов, 1987].

Olim Ergash Jumanbulbul o'g'li tadqiqotchisi sifatida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Aspiranturada o'qib yurganida bo'lajak olim Ergash shoir repertuaridagi "Ravshan" dostoni tilini izchil o'rgandi va 1949-yilda "Ravshan" dostoni tilining badiiy xususiyatlari mavzusidagi monografiyasini yozib tamomladi hamda uni filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun muvaffaqiyatli himoya qildi. U "Ravshan" dostonining til xususiyatlarini o'rganish asosida Ergash Jumanbulbul o'g'lining xalq tili leksik boyligidan foydalanishdagi o'ziga xos badiiy mahoratini ochib berdi. Olimning "Ravshan" dostonidagi badiiy fonetika elementlari" (1967), "Ergash Jumanbulbul dostonlarida badiiy tasvir va ifoda" (1970), "So'z san'atkor" (1970), "О поэтических особенностях языка поэмы "Равшан" Эргаша Джуманбульбул-оглы" (1970), "Ergash Jumanbulbulning "Ravshan" dostoni tili haqida" (1971), "Ergash Jumanbulbul o'g'li"

(1972), “Mashhur dostonchi” (1972), “Xalq donoligi” (1978) nomli maqolalarida Ergash shoir, uning ijodi hamda o'zbek folklorining turli xususiyatlariga doir muhim qarashlar ifoda etilgan.

Shonazar Shoabdurahmonovga 1973-yilda aynan Ergash Jumanbulbul o'g'lining adabiy-badiiy merosini tadqiq etish va nashr qilishdagi (o'zbek tilida besh jild va rus tilida uch jild) ishtiroki uchun respublikaning bir guruh olimlari qatorida Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti berildi.

Shu bilan birgalikda olim o'zbek folkloriga oid “Ergash Jumanbulbul o'g'li” (1954), “O'zbek folkloridan namunalar” (1954), “Xalq baxshilarining epik repertuari” (1979) kabi kitoblarga mas'ul muharrir, “Kulsa – gul, yig'lasa – dur”, “Luqmoni Hakim”, “Oq olma, qizil olma”, “Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rnini”, “O'zbek xalq maqollari” kabi ko'plab kitoblarga tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan.

Shonazar Shoabdurahmonovning bu kabi ishlari uning o'zbek folklorshunosligi sohasiga ham hissa qo'shganligini va uning faoliyati xususida to'xtalganda folklorshunoslik faoliyatini ham e'tirof etib ketishimiz kerakligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Shonazar Shoabdurahmonov folklorshunos hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Т., Жўраев М. Шоназар Шоабдурахмонов // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003. – № 3. – Б. 93-96.
2. Qodirov U. Famous dialectology scientist // American Journal of Interdisciplinary Research and Development, ISSN: 2771-8948 Volume 36 ISSUE 1/2025, SJIF: 9,6. – B. 176-180.
<https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/1457>
3. Qodirov U. The scientific activities of Shonazar Shoabdurahmonov // Bulletin of Pedagogics of New Uzbekistan, ISSN: 2181-4503 Volume 3 ISSUE 2/2025, SJIF: 5,1. – B. 94-99.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14870620>
4. Шоабдурахмонов Ш. Таъзим. (Ходи Зариф таваллудининг 60 йиллигига) // Тошкент окшоми. – 1967, 17 март.
5. Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” дostonида бadiий фонетика элементлари / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент, 1967. – Б. 23-30.
6. Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” дostonининг тили ҳақида / Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. Тадқиқотлар. 2-китоб. – Тошкент, 1971. – Б. 146-172.
7. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. – № 5. – Б. 43-50.
8. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул ўғли // Ойдин. 1972, 4 май. (Араб ёзувида).
9. Шоабдурахмонов Ш. Сўз санъаткори. (Эргаш Жуманбулбул ўғли ҳақида) // Тошкент окшоми. – 1970, 13 июль.
10. Шоабдурахмонов Ш., Мирзаев Т. Машхур дostonчи (Эргаш Жуманбулбул ўғли ҳақида) // Ўзбекистон овози. – 1972, 12 май.
11. Шоабдурахмонов Ш. Ўлмас санъаткорлар (Фозил Йўлдош ўғли, Муҳаммадкул Жонмурод ўғли Пўлкан ва Ислон Назар ўғли таваллудининг 100 йиллигига) // Ўзбекистон овози. – 1975, 5 сент.
12. Шоабдурахмонов Ш., Мирзаев Т. Мерос замон хизматида // Тошкент ҳақиқати. – 1981, 20 окт.
13. Шоабдурахмонов Ш., Мирзаев Т. Улкан олим // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985. – № 4. – Б. 28-33.
14. Шоабдурахмонов Ш. Фольклоршуноснинг камолоти // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. – № 2. – Б. 74-75.
15. https://t.me/shoabdurahmonov_ilmii_ishlar